

**“XALQ TABOBATI: TARIXI, YUTUQLAR,
ISTIQBOLLAR”**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari
to‘plami

28 aprel 2023-yil

Toshkent sh., O‘zbekiston

Сборник материалов Международной научно-
практической конференции

**«НАРОДНАЯ МЕДИЦИНА: ИСТОРИЯ,
ДОСТИЖЕНИЯ, ПЕРСПЕКТИВЫ»»**

28 апреля 2023 года

г. Ташкент, Узбекистан

Collection of materials of the International scientific and
practical conference

**"TRADITIONAL MEDICINE: HISTORY,
ACHIEVEMENTS, PROSPECTS"**

28 April 2023

Tashkent, Uzbekistan

Ташкентская медицинская академия // Сборник материалов Международной научно-практической конференции «НАРОДНАЯ МЕДИЦИНА: ИСТОРИЯ, ДОСТИЖЕНИЯ, ПЕРСПЕКТИВЫ» Сборник материалов конференции // ООО "TIBVIYOT NASHRIYOTI MATVAA UYI" - 2023 - 112 стр.

Главный редактор	Шадманов А.К., ректор Ташкентской медицинской академии, профессор, д.м.н.
Заместитель главного редактора	Азизова Ф.Л., проректор по науке и инновациям Ташкентской медицинской академии, профессор, д.м.н.
Ответственный секретарь	Высогорцева О.Н., доцент кафедры реабилитологии, народной медицины и физической культуры, к.м.н.
Редколлегия:	Собирова Г.Н., профессор кафедры реабилитологии, народной медицины и физической культуры, д.м.н. Жумаева Г.А., доцент кафедры реабилитологии, народной медицины и физической культуры, к.м.н.

**“XALQ TABOBATI: TARIXI, YUTUQLAR,
ISTIQBOLLAR”**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami
28 aprel 2023-yil

Toshkent, O‘zbekiston

Сборник материалов Международной
научно-практической конференции

**«НАРОДНАЯ МЕДИЦИНА: ИСТОРИЯ, ДОСТИЖЕНИЯ,
ПЕРСПЕКТИВЫ»**

28 апреля 2023 года

Ташкент, Узбекистан

Collection of materials of the International scientific
and practical conference

**«TRADITIONAL MEDICINE: HISTORY, ACHIEVEMENTS,
PROSPECTS»**

28 April 2023

Tashkent, Uzbekistan

qa turli sayillar (uzum, suv va h.k) hamda urf - odatlar haqida mufassal ma'lumotlar berganki, bu alohida ilmiy tadqiqotni talab qiladi, albatta.

Beruniyning ilmiy merosi Markaziy Osiyo bilan qo'shni, ayniqsa, Janubiy Osiyoda yashagan elat va xalqlar to'g'risidagi tarixiy - etnografik ma'lumotlar, jahon xalqlarining etnik xususiyatlarini va turmush tarzini o'rganishda noyob manba hisoblanadi. Lekin al-loma asarlaridagi tarixiy - etnografiya ma'lumotlar hanuzgacha yetarlicha o'rganilmagan.

Xullas, jahon tsivilizatsiyasi ravnaqiga o'zining yirik ilmiy kashfiyotlari bilan salmoqli hissa qo'shgan, O'rta Osiyo birinchi Uyg'onish (Renessans) davrining yirik namoyandasi, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy asarlaridagi boy tarixiy-etnografik ma'lumotlar o'zbeklarning kelib chiqishi (etnogenezi), etnik tarixi va etnomadaniyatini yanada teranroq o'rganib, yanada salmoqli va to'laqonli ilmiy-tadqiqotlar yaratishda eng qimmatli va noyob manbalardan hisoblanadi.

«HUDUD UL-OLAM» VA UNDA QASHQADARYO VOHASI SHAHARLARI TAVSIFI

Ochil Bo'riyev (professor, Tarix fanlari bo'yacha PhD), Sherzod Iskandarov (dotsent)

Qarshi DU Jahon tarixi kafedrası, Ijtimoiy fanlar kafedrası

Vatanimizning olis moziyga bo'ylashgan o'tmishi va kechmishini teran ilmiy tadqiq etishda birlamchi tarixiy-geografik manbalar eng muhim ahamiyatga egadir. Mazkur manbalarda o'lkamizning o'tmishdagi tabiati, xo'jaligi, ekologik holati, shaharlari, aholisi etnografiyasi, savdo-elchilik munosabatlari kabilar haqida qimmatli ma'lumotlar bayon etilgan. Ana shunday noyob manbalardan biri X asr oxirlarida noma'lum muallif tomonidan yozilgan «Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila-l-mag'rib» (Olam (Yer) ning mashriqdan mag'ribgacha bo'lgan chegaralari haqida kitob») asari hisoblanib, tarixiy manbashunoslikda qisqacha «Hudud ul-olam» nomi bilan ma'lumdir.

Mazkur asar fors tilida hijriy 372 (milodiy 982-983) yilda shimoliy-sharkiy Afg'onistonning Juzjon viloyati hokimi Farug'iniylardan biri Abdul Horis Muhammad ibn Ahmadga bag'ishlab yozilgan. Asar 1258 yilda esa qayta ko'chirilgan. Mazkur asar haqida ma'lumot XIX asr oxirigacha hech qanday manbada qayd etilmagan. Ammo hozirgacha bu asar muallifi noma'lumligicha qolmoqda va tarixiy manbashunoslikda muallifi noma'lum asar sifatida yuritilmoqda.

«Hudud ul-olam» yagona nusxada saqlangan bo'lib, 1892 yilda kitob do'konidan Abulfazl Gulpaygoniy tomonidan topilgan va u orqali 1893 yilda rus sharqshunosi A. G. Tumanskiy (1862-1920) tasarrufiga o'tgan. 1924 yilda esa Sankt-Peterburgga olib ketilgan va Osiyo xalqlari muzeyi jamg'armasiga topshirilgan. Mazkur asar dastlab Gulpaygoniy, so'ngra A.G.Tumanskiy tomonidan tadqiq etilgan va ilmiy yo'nalishga kiritilgan. Shundan so'ng olimlar bu asardan o'z ilmiy tadqiqotlarida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishgan.

Shuni ta'kidlash joizki, «Hudud ul-olam» asari X asrda yaratilgan nodir manbalar sirasiga kirib, unga arab tilidagi ayrim geografik manbalardan foydalanilgan hamda talaygina yangi ma'lumotlar kiritilgan. Asar ixcham tarzida yozilib, jami 30 varaq va 60 maqoladan iborat bo'lib, muqaddima va 59 bobga bo'linadi. Ushbu asardan muqaddimasidan so'ng quruqliklarning chegaralari, okeanlar, dengizlar, orollar, tog'lar, ma'danlar, daryolar, cho'llar, viloyatlar haqida ko'plab etnografik va iqtisodiy ma'lumotlar joy olgan.

Asarda yerning obod qismi 51 viloyatga bo'linganligi va uning 5 tasi ekvatoridan shimolda, 5 tasi ekvatoridan janubda joylashganligi bayon etilgan. Bunda o'lkalar haqida fikr yuritilib, yunonlar zamonidayoq dunyo 3 qismga: Osiyoi Akbar (Katta Osiyo), Libiya (Afrika) va O'rupo (Yevropa) ga bo'lingan va har birining chegarasi ko'rsatilgan.

Ushbu risolada Movarounnahrda oid ma'lumotlar asarning faksimil nashri asosida keltirilgan va unga zarur ilmiy izohlar ham ilova qilingan. Asarda O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonga oid tarixiy-geografik va etnografik ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Asarda Movarounnahr shaharlari aholisi va ularning mashg'ulotlari haqida qimmatli materiallar-

ni keltirilganligi diqqatga sazovordir. Hususan Buxoro, Poykent, Sug'd, Tavovis, Karmana, Kushoniya, Samariya, Kesh, Termiz, Kot, Farg'ona, Shosh va boshqa shahar hamda viloyatlar ta'rifi keltirilgan. Quyida mazkur risoladagi Qashqadaryo vohasi shaharlari tavsifi ba'zi manbalar asosida qiyosiy tahlil etishga harakat qilamiz.

Olimlar fikricha, Navqad-Quraysh Nasafdan 6 farsax keladi. Muarrix Istahriy uni Keshdan 5 farsax deb hisoblaydi. X-XVI asrlardagi vaqf xujjatlarida ham zikr etilgan. Akademik K.Shoniyozov arablar quraysh qabilasining bir guruhi Navqadda yashaganligini qayd etgan.

Nasaf-Kesh savdo yo'lida Navqad-Quraysh shahri Chim qishlog'i yaqinidagi Qamaytepa yoki Oltintepa o'rnida joylashgan.

«Naxshab-noz-ne'matlarga boy, farovon, ekinzorlari ko'p, obod shahar. Uning bir daryosi bor, shaharning o'rtasidan (oqib) o'tadi».

«So'nax-Naxshabga qarshli shahar». Tarjimon izohida So'nax IX-XII asrlarda arab tilida manbalarda "So'box" va «Sunaj» shakllarida yozilgan. Uning o'rni taxminan G'uzor yaqinidagi O'liktepaga to'g'ri keladi. Sam'oniylar ma'lumoticha Subax-Nasafdan 6 farsax uzoqlikdagi Xuzor qishlog'i yaqinida.

Boshqa asarlarda keltirilishicha, Subax Nasafdan 6 farsax narida, Xuzor qasabasi-da Istahriy bu joyni Sunaj shaklida beradi va Nasafdan bir manzil, Keshdan esa 2 farsaxdir degan. (1 farsax 6-8 chaqirim yoki bir manzil). Subax Xuzor rustog'i hududida Nasaf-Termiz savdo yo'lida joylashgan. Subax maydoni 100 gektarni tashkil etib, G'uzordan 8 km shimoli-g'arbda Qarshi yo'lidagi Ulug'tepa yodgorligi o'rnidadir.

«Sakifang'n-shaxarcha, ekinlari ko'p». Risolada tarjimon izohi mavjud emas. Manbalarga ko'ra Sakifang'n (Iskifagn) Nasaf-Termiz yo'lida joylashgan. Akademik V. V. Bartold ma'lumoticha Iskifagn dan G'uzordagi Eskibog' qishlog'i nomi kelib chiqkan. Manbalarga ko'ra, Iskifagn ham Xuzor rustog'ida bo'lib, Subaxdan 1 farsax uzoqlikda Kesh-Subax yo'lida joylashgan.

«Bazda-shaharcha, aholisi kam (biroq) ekinzorlari ko'p, bir quruq o'zani bor va unda yilning ma'lum faslidagina suv oqadi, xolos. (Aholi) aksari halda quduq suvidan va do'loblar (vositasida chiqarilgan suvdan foydalanadi)». (Do'lob - charxpalak yoki chig'ir. Risoladagi tarjimon izohida keltirilishicha, Bazda taxminan hozirgi Kasbi tumanidagi Fazli qishlog'i. Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida «Ko'hna Fazd» shaklida berilgan. Bu asarni ko'zdan kechirganda «Farli Ko'hna» mavzesi iborasi ham uchraydi.

Sam'oniylar ma'lumoticha Bazda Nasafdan 6 farsax uzoqlikda Buxoro yo'lidagi katta qal'a. Olimlar ma'lumoticha Bazda (Ko'hna Fazli) Shulluktapadan 40 km janubi-g'arbda, Qamashi qishlog'idan 10 km janubi-g'arbdajoylashgan.

Xullas «Xudud ul-olam» («Olam chegaralari») asarida Movarounnahr-ning X asrdagi tabiati, aholisi, tarixi, etnografiyasi, geografiyasi, shaharlari, iqtisodiy hayoti kabilar haqida noyob ma'lumotlar mavjud. Shu jumladan Qashqadaryo vohasi yirik shaharlari to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlarning mazkur risolada qisqa bo'lsada bayon etilganligi ayniqsa diqqatga sazovordir. Ushbu asar Turonzamin tarixi, o'tmishdagi geografiyasi bilan shug'ullanuvchilar eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Shuningdek asardan umuta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimidagi tarixnavislik, manbashunoslik, matnshunoslik, Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi fanlarini o'qitishda eng muhim qo'llanma sifatida ham foydalanish mumkin.

BO'G'IM KASALLILARNI DAVOLASHDA APITERAPIYANING O'RNI

Ergasheva N.O. (Rahbar t.f.d., dotsent)

TXKMPPM Xalq tabobati kursi

TDSI Asab kasalliklari. Xalq tabobati kafedrasida assistenti Maxamadxodjaeva. M.A.